

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QITISH METODLARINI  
MUVOFIQLASHTIRISHNING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

**Jumasheva Nigora Ziyodulla qizi.**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'qitishda ta'limiy metodlarni muvofiqlashtirishning metodologik va nazariy asoslari keng yoritilgan. Maqola mohiyatida ta'lim metodlarining pedagogik, psixologik va didaktik jihatdan uyg'unlashuvi tahlil qilingan. Shu bilan birga, hozirgi ta'lim tizimida metodlarni tizimli va maqsadga muvofiq qo'llashning ahamiyati keng ochib berilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalariga ko'ra, ta'limda metodlarni to'g'ri muvofiqlashtirish o'quvchilar bilimining sifatli bo'lishiga, mustaqil fikrlash qobiliyati tining rivojlanishiga hamda ta'lim samaradorligining yuqori darajada bo'lishiga xizmat qiladi.*

**Аннотация** *В данной статье широко освещаются методологические и теоретические основы координации образовательных методов в процессе обучения. В содержании статьи анализируется педагогическая, психологическая и дидактическая согласованность методов обучения. Наряду с этим раскрывается важность системного и целенаправленного применения методов в современной системе образования. В соответствии с целью и задачами исследования установлено, что правильная координация методов обучения способствует повышению качества знаний учащихся, развитию их самостоятельного мышления и повышению эффективности образовательного процесса.*

**Annotation :** *This article broadly highlights the methodological and theoretical foundations of coordinating teaching methods in the educational process. The pedagogical, psychological, and didactic integration of teaching methods is analyzed in the content of the article. In addition, the importance of systematic and purposeful application of teaching methods in the modern education system is revealed. According to the purpose and objectives of the research, proper coordination of teaching methods contributes to improving the quality of students' knowledge, developing their independent thinking skills, and increasing the overall effectiveness of education.*

**Kalit so'zlar:** *Metadologiya, metodlarni muvofiqlashtirish, ta'limiy metod, didaktik nazariya, pedagogik psixologiya, ta'lim samaradorlik, o'quv jarayoni, interaktiv metodlar, ta'lim texnologiyalari.*

**Kirish:**

Bugungi rivojlangan zamonda ta'lim tizimida olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan islohatlar va yangiliklar o'quv jarayonining yanada ijobiy va samarali tashkil etilishini, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan pedagogic yondashuvlarni joriy etilishini talab etib kelmoqda. Ko'p jihatdan ta'lim jarayoni muvoffaqiyatli o'qituvchi tomonidan tanlangan bo'ladi va shu

asnoda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ta'limiy metodlarning to'g'ri tanlanishi va shu bilan birgalikda ularning o'zaro muvofiqlashtirilgan holatida qo'llanilishiga doimo bog'liqdir. Sababi metodlar nafaqat bilim berish vositasigina bo'lib qolmay balki o'quvchilarning mustaqil fikrlay olishi, ijodiy yondasha olishi va shu bilan birgalikda amaliy faolyatini rivojlantira oladigan pedagogic omillardan eng muhimi bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy pedagogikada ta'limiy metodlarni alohida qilib qo'llashgina emas, qaytanga ularni o'zaro uyg'unlashtirish va shu qatorda tizimli asosda tashkil etish eng muhim ahamiyat kasb etgan jihatidir. Muvofiqlashtirilgan holda metodlarni o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning o'quv materialini chuqur o'zlashtirishda ijobiy natijani ta'minlashda, ta'lim jarayonida interaktiv va mazmunli tashkil etishda samarali vosita sanaladi. Pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri ta'lim metodlarining muvofiqlashtirishning nazariy va metodologik asoslarini o'rganish hisoblanadi. Didaktik prinsiplar, pedagogik qonuniyatlar va psixologik xususiyatlarga ta'lim metodlarini muvofiqlashtirish jarayonini asosi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari, qiziqishlari va o'quv ehtiyojlarini inobatga olib metodlar tanlanadi va uyg'unlashtirilgan holatda ta'lim samaradorligini ta'minlashda xizmat qiladigan muhim omil bo'ladi. Shu qatorda, zamonaviy ta'limning texnologiyalarida va uning rivojlanishida ham metodlarni integratsiyasiylash ularni yangi pedagogik sharoitlarga moslashtirishda zaruriyatni yuzaga keltiradi. Quyidagi maqolada o'qitishning ta'lim metodlarini

muvofiqlashtirishning nazariy va metodologik asoslarini, ularning pedagogic va psixologik jihatlari va shu bilan birga ta'lim jarayonida metodlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashda muhim ahamiyati yoritiladi. Bu masalarning ilmiy asosda tahlil qilinishi o'quvchilarda kasbiy kompetensiyani oshirishda, ta'lim sifatini yaxshilashda va samarali o'quv jarayonini tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodlar:**

Ta'lim metodlarini muvofiqlashtirish masalasida pedagogika fanida ilmiy muhim yo'nalishlardan biri bo'lgani uchun ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan izlanib o'rganilgan. Muammolar avvalo ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda o'quvchilarning bilim olish faolyatida faollikni aktivlashtirish va o'qitishni tizimli tashkil etish bilan bog'liq holda tadqiq etiladi. Pedagogik nazaryada ta'lim metodining muammosi bo'yicha Ya. A. Kominskiy o'zining didaktik jihatdan qarashlarida o'qitish jarayonining tabiatga mos, tizimli, izchillik tashkil etilishi zarurligi haqida ta'kidlagan. U metodlarning o'zaro bir biriga bog'liqligi hamda ketma ketligi ta'limning samaradorligini belgilaydigan omillarning asosi ekanligini ilmiy asoslab bergan. K. D. Ushenskiy ta'lim metodlarini o'quvchining psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'lagan holatda qo'llash zarurligi haqida ko'rsatmalar bergan. Uning fikrida qarashlari ushbu ko'rinishda bo'lgan ya'ni uning fikricha, o'qitishda metodlar o'quvchining tafakkuri qiziqishi va bilish faolyatini rivojlantirishga xizmat qilish kerak va bu yondashuv metodlarni muvofiqlashtirishda psixologik omillarning doim muhimligini asoslaydi. Ushenskiy ta'kidlaganidek o'qitish metodlari o'quvchilarning

yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasiga individual imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Zamonaviy pedagogika fanida ham ushbu muammo keng o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, Lev Vygotskiy ta'lim jarayonida ijtimoiy muhit va o'qitish metodlarning o'zaro bog'liqligini asoslab bergan va o'qitish rivojlanishga yetakchi omil ekanligini ko'rsatib bergan. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga binoan, metodlar o'quvchining imkoniyatlariga mos holda tanlanishi lozim. Metodlarni muvofiqlashtirish masalasi yuzasidan O'zbekiston pedagogik olimlar tomonidan ham keng izlanishlar olib borilgan. Unda ular ta'lim metodlarining tizimli va shaxsga yo'naltirilgan kompetensiyaviylik yondashuv asosida qo'llanilishning metodologik hamda nazariy asoslarini ishlab chiqishgan. Ushbu ilmiy qarashlarda o'zbek olimlarining ilmiy fikrlari va ishlari yoritiladi. Bulardan A. Avloniyning qarashlari, Avloniy ta'lim samaradorligini quyidagi omillarga bog'liqligini ko'rsatgan:

- o'qituvchining pedagogik mahorati
- ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishi
- metodlarning o'zaro uyg'unligi
- o'quvchilarning faolligi.

Uning fikricha, ta'lim metodlari o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Tursunboy Ziyomammedov ilmiy ishlarida esa ta'lim metodlarini tizimli yondashuvini asosida o'ragnib, uni o'qitishning maqsadi va mazmuniga mos holda tanlanishi zarurligini asosli yoritib bergan.

Bektosh Rajabovning ilmiy tadqiqotlarida esa ta'lim metodlarini tanlash muvofiqlashtirish didaktikaning asosiy muammolaridan biri ekanligini ta'kidlagan. Shu asnoda metodlarni quyidagi bir necha tamoyillar asosida tanlash zarurligini ko'rsatgan.

- ilmiylik tamoyili
- tizimlilik tamoyili
- izchillilik tamoyili
- samaradorlik tamoyili

Rajabov metodlarning o'zaro bog'liqligini ta'lim samaradorligini oshira olishini asoslab bergan.

### **Ta'lim metodlarining muvofiqlashtirishda asosiy metodlar tizimi va tahlili.**

Og'zaki metodlar- ta'lim jarayonida eng keng qo'llaniladigan metod. Ular quyidagilar:

- tushuntirish
- hikoya qilish
- ma'ruza
- suhbat
- savol-javob

Ushbu metodlar orqali o'quvchilarga yangi bilimlar ulashiladi. Ushenskiyning fikricha og'zaki metodlarning samaradorligi o'qituvchining nutq madaniyati va ifodaliligiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Ko'rgazmali metodlar- o'quvchilarning tasavvurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagilardan iborat:

- rasmlar
- sxemalar
- jadvallar
- modellar
- videomateriallar

Komenskiy ko'rgazmalilikni ta'limni asosiy tamoyillaridan biri sifatida ta'kidlaydi.

Amaliy metodlar- o'quvchilarning bilimlarini amalda qo'llashga yordam beradi va ular quyidagilardan iborat:

- mashqlar
- laboratoriya ishlari
- mustaqil ishlar
- amaliy topshiriqlar

Ushbu metodlar o'quvchilarda malaka va ko'nikmalarni ijobiy shakllantiradi.

Muammoli o'qitish metodlari- o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi:

- muammoli savollar
- muammoli vaziyatlar
- mustaqil izlanishlar

Endi bu metod zamonaviy ta'limda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Interfaol metodlar- o'quvchilar faolligini oshiradi va ular quyidagilardan iborat:

- bahs-munozara
- klaster
- aqliy xujum
- kichik guruhlarda ishlash

Bu metodlar o'quvchilar ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Muhokama. Ushbu bo'limda bayon etiladigan asosiy sabablar mavzuning muhokama va natijalar bayonini bugunki kunda ta'kim jarayonida o'qitish metodlarining muvofiqlashtirishda ta'lim samaradorligini oshirish muhim omillardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Ilmiy-pedagogik tahlili shuni ko'rsatadiki, metodlarni alohida qo'llashni emas nisbatan uyg'unlashtirish o'quvchilarning bilim darajasini tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Chunki har bitta metod o'ziga hos didaktik imkoniyat va ahamiyatga ega va kompleks qo'llanilishi ta'lim samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga metodlarning muvofiqlashtirishda qo'llashda o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat egasi bo'lishi metodik bilim va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishi lozim. O'qituvchi ta'limning maqsadi, mazmuni o'quvchilarning individual xususiyatlarini umuman olganda barcha asoslarni hisobga olgan holda metodlarni to'g'ri tanlashi va uyg'unlashtirilishi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, muhokama va natijalar muvofiqlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Metodlarning o'zaro uyg'unligi ta'lim jarayonining sifatliqligini o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli zamonaviy ta'lim jarayonida metodlarni muvofiqlashtirish mavzusida izlanishlar, muhokma va natijalar alohida e'tibor qaratilishi zarur omil bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.**

Ta'lim jarayonida metodlarni muvofiqlashtirish pedagogik faolyatning asosiy qismi bo'lib, ta'lim sifatini, dars samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar va ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili quyidagilarni ko'rsatib beradi ya'ni ta'lim metodlarini tizimli, izchil va o'zaro birlikda qo'llash orqali o'quvchilar bilimlarini aniq va mustahkam o'zlashtirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va ta'lim jarayonida faollikni oshirishga yordam beradi. Pedagogika fanining klassik namayondalari, jumladan, Konstantin Dmitrievich Ushinskiy ta'lim metodlarini o'quvchilarning yosh va psixologik holatidan kelib chiqqan holda tanlash va ularni o'zaro uyg'unlashtirib olib borish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Uning usuliga ko'ra, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni birgalikda qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biridir. Shu bilan bir qatorda o'zbek pedagog olimlari, jumladan, Abdulla Avloniy ham ta'lim jarayonida metodlarning izchilligini ta'minlash o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali va tizimli tashkil etishni muhimligini ta'kidlab o'tgan. Hozirgi zamon ta'lim tizimida an'anaviy metodlarni interfaol va inovatsion metodlar orqali muvofiqlashtirish ta'lim sifatini yanada rivojlantirishni ta'minlaydi. Metodlarning uzviy uyg'unligi o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, ularda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va to'plagan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishning eng muhim pedagogik sharti bu o'qitish metodlarini muvofiqlashtirishdir. Ilmiy asoslangan metodlarni tanlash, ularni o'zaro uyg'unlashtirish va ta'lim jarayoniga mos ravishda foydalanish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish shu bilan birga, mustaqil fikrlay oladigan, raqobatbardosh shaxsni tarbiyalash mumkin. Shu bois, zamonaviy pedagogik amaliyotda o'qitish metodlarini to'g'ri muvofiqlashtirishga alohida ahamiyat berish muhim hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. UNESCO. Innovative Teaching and Learning Practices. – Paris: UNESCO Publishing, 2022.
2. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasbiy pedagogika. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
4. Sharipov Sh.S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
5. Robert J. Marzano. The New Art and Science of Teaching. – New York: Solution Tree Press, 2018.

6. Ochilov M. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2020